Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN INTENSIV FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI (1-SINF MISOLIDA)

Nilufar Shuxrat qizi Nasriddinova*
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ nnasriddinova57@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda ona tili darslarida xususan 1-sinflarda innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalanishning amaldagi holati va mavjud muammolari, dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv, didaktik o'yin texnologiyalariga asoslangan didaktik o'yinlardan, raqamli vositalardan foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, intensivlik, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, multimedia, raqamli ta'lim vositalari.

DOI: 10.5281/zenodo.21743080

Kirish. Har bir mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti bugun maktablarda ta'lim olib ulg'ayib borayotgan farzandlarimizga hamda ularning yetuk va barkamol shaxs sifatida yetishishlariga bog'liqdir. Bugungi ta'lim olayotgan yoshlarimizni jahon talablariga mos va ularning talabiga javob bera oladigan, raqobatlasha oladigan darajada o'qitish albatta zamonaviy pedagog munosib o'qituvchilar zimmasiga to'g'ri keladi. Uzluksiz ta'limning bosh bo'g'inlaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq zamonaviy tendensiyaga asoslanib o'qitish, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan boshlab o'z kasbiy mahoratlarini rivojlantirish, ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatini chuqur anglash hamda ulardan foydalanish, dars jarayonida faol va samarali qo'llash, ularni tahlil qila olish va amaliyotga joriy etgan holda ta'lim sifatini salmoqli darajada oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatlarini kengaytirish,erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini to'laqonli anglash, o'z fikrini o'g'zaki va yozma bayon etish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish kabi ko'nikma va malakalarni egallashlari hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili ta'limi boshqa turdagi fanlardagi bilimlarni egallash uchun asos bo'lb xizmat qiladi. Negaki, ona tili ta'limi ilk bosqichdanoq ya'ni 1-sinfdanoq o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini shakillantiradi, lug'at boyligi oshadi, ijodiy fikrlashga, mulohaza yuritishga, mantiqiy-tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarini egallashga yordam beradi.Ushbu bilim, ko'nikma va malakalarini egallagach barcha fanlarni qiynalmasdan o'zlashtira oladi. Boshlang'ich ta'limda, ayniqsa 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'ziga xos metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki bu bosqichdagi o'quvchilar endigina o'qish va yozish ko'nikmalarini egallayotgan bo'lib, ularga mo'ljallangan raqamli ta'lim resurslari hamda yosh xususiyatlariga mos elektron kontentlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Amaliyotda innovatsion texnologiyalar ko'pincha epizodik yoki texnologiyaning o'zi maqsad sifatida qo'llanilayotganligi kuzatiladi. Vaholanki, ularni darsning maqsadi, mazmuni va didaktik vazifalaridan kelib chiqib tizimli qo'llash samaraliroq natijalarni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalardan me'yorda foydalanishni bilish kerak. Innovatsion texnologiyalar ko'p qirrali bo'lib o'qituvchini mahoratli bo'lmasa didaktik maqsadlarini chalg'itib yuboradi. Shu sababdan

o‘qituvchidan maqsadli foydalana olish mahoratini talab qiladi. “…Ilgari o‘qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibtidoiy shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-barang bo‘yoqlardan foydalanib o‘zi yoki kimningdir ko‘magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsion texnologiyalar, xususan, kompyuterlar, multimedia mahsulotlari beminnat o‘z bo‘yniga oldi ”[1]...zotan ushbu texnologiyalar o‘qituvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak. Innovatsion texnologiyalardan intensiv foydalana olish qobiliyatiga ega o‘qituvchi ona tili fanini murg‘ak qalblarga qay yo‘sinda foydalana olishni, darsning qaysi jarayonida qanday texnologiyalardan foydalana olishi zarurdir. Intensiv foydalanish deganda innovatsion texnologiyalarni shunchaki ko‘p qo‘llash emas, balki ularni darsning muayyan bosqichlarida maqsadga muvofiq integratsiyalash orqali qisqa vaqt ichida yuqori ta’limiy natijalarga erishish tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, Milliy o‘quv dasturi asosidagi ona tili darslarida mustahkamlash va ijodkorlik soatlari uchun didaktik o‘yinlarga asoslangan multimedia topshiriqlaridan foydalanish, takrorlash darslarida Wordwall platformasi yordamida interaktiv o‘yinlarni tashkil etish, har bir darsning yakuniy bosqichida esa Plickers vositasidan tezkor diagnostika va bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur vositalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, barcha o‘quvchilarni frontal tarzda ta’lim jarayoo‘niga jalb etish hamda o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, Plickers kabi tezkor teskari aloqa (feedback) vositalari o‘qituvchiga qisqa vaqt ichida sinfning o‘zlashtirish holatini aniqlash, natijalarni tahlil qilish va keyingi ta’limiy faoliyatni rejalashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada nazorat, tahlil va korreksiyaga sarflanadigan vaqt qisqarib, o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi. Demak, innovatsion texnologiyalarni didaktik maqsadlarga muvofiq, tizimli va bosqichma-bosqich qo‘llash 1-sinf ona tili darslarida intensiv ta’limni tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ularni shunchaki qo‘llash bilan emas, balki darsning maqsadi, mazmuni va bosqichlariga muvofiq ravishda tizimli integratsiyalash bilan bog‘liq. Didaktik o‘yinlarga asoslangan multimedia topshiriqlari, Wordwall va LearningApps platformalaridan takrorlash hamda mustahkamlash jarayonlarida, Plickers vositasidan esa tezkor diagnostika va teskari aloqani tashkil etishda foydalanish o‘quvchilarning faolligi va savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur vositalarni didaktik tamoyillar asosida qo‘llash o‘qituvchi faoliyatini optimallashtirish, vaqt tejamkorligini ta’minlash va ta’lim natijadorligini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarni maqsadli va tizimli qo‘llash ona tili darslarida intensiv ta’limni tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Ona tili ta’limi va zamon taqozosi/”O‘zbek tili” doimiy anjumanning XII yig‘ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2013.-204 b. -11-b.
2. Karimova B.X., Nasriddinova N.Sh., Jumayeva M.O‘. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – Termiz, 2025. TerDu NMM nashriyoti, 133-b.
3. G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari// - T.: 2009. – 106 b.
4. Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi: Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: Bayoz, 2024. – 304 b.

[1]Mahmudov N. Ona tili ta’limi va zamon taqozosi/”O‘zbek tili” doimiy anjumanning XII yig‘ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2013.-204 b. -11-b.